



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 13-son



## 8-DEKABR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYASI KUNI

|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Maxliyo To'raqulova. Tazkiranavislik an'anasi va taraqqiyot tamoyillari.....                                                                         | 73  |
| Dilshod Rajabov, To'xtamurod Rajabov. She'riyatda ko'chimlarning yuzaga kelish usullari, xususiyatlari va badiiylanish ko'rinishlari..               | 75  |
| Marjona Xayrullayeva. Buxoro viloyat Vobkent tumandagi joy nomlari asosida shakllangan toponimlarning paydo bo'lishi..                               | 77  |
| Ibratbek Qurbanov. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning dolzarb muammolari va yechimlari..... | 80  |
| Gulshan Musulmonova. "Zarbulmasali Sidqiy" asari qo'lyozmasi haqida.....                                                                             | 83  |
| Berdibek Yusupov. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi.                           | 85  |
| Nigora Ruziyeva. Isajon Sulton romanlarida qo'llanilgan metaforaning leksik xususiyatlari .....                                                      | 88  |
| Maftuna Nurboyeva. Tilshunoslikda frazeologiya va uning tasnifiga oid tadqiqotlar tahlili .....                                                      | 90  |
| Hasan Gafforov. Gender in modern linguistics .....                                                                                                   | 93  |
| Sitora Xasanova. Exploring linguoculturology: language, culture, and the concept of a cultural concept.....                                          | 95  |
| Damira Suvonova. The investigation of taste adjectives in linguistics.....                                                                           | 97  |
| Kakhramon Kuralov. Content and language integrated learning (clil) for future specialists in the field of natural sciences....                       | 99  |
| Кодиржон Мўйдинов. Фразеологизмы - одна из лингвистических единиц лексикона судебной речи.....                                                       | 101 |

### TAHLIL

|                                                                                                    |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Yo'ldosh Rahmatov. So'z ko'rki – maqol .....                                                       | 103 |
| Azamat Atayev. O'zbek tilidagi ayrim arabiy o'zlashmalarning etimologiyasiga doir .....            | 105 |
| Latofat Tashmuhamedova. O'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili .....                                    | 107 |
| To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy asarlarining matniy tadqiqi .....                         | 109 |
| Xurshida Ro'ziyeva. Abdulla Oripov asarlarida leksik sinonimlar.....                               | 110 |
| Moxichehra Muxammadiyeva. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi qush obrazlari .....                | 113 |
| Dilruxjon Abdilakimov. Cho'lpon ijodi zamondosh munaqqidlar nigohida .....                         | 115 |
| Dilshod Xursanov. Omon Matjon she'riyatida esxatologik motivlar badiiyati.....                     | 118 |
| Nargiza Pazlitdinova. Alisher Navoiyning mulamma' san'atiga asoslangan g'azali .....               | 120 |
| Sapura Ne'matova, Akbar Jumanov. Bobur g'azallarida go'zallik talqini.....                         | 123 |
| Jahongir Turdiyev. "Lison ut-tayr" asarida me'roj tavsifi .....                                    | 126 |
| Munira Akbarova. G'ayriodatiy birikmalar professor Nizomiddin Mahmudovning ilmiy qarashlarida..... | 128 |

### METODIK TAVSIYA

|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| B.Xusniddinova. Bo'lajak logoped mutaxassislarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish .....                                                                   | 131 |
| Nigora Umarova. O'zbek tili ta'limida savol o'quv topshirig'ining ahamiyati .....                                                                              | 133 |
| Madina Alimova. Til o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar haqida.....                                                                                           | 136 |
| Dilnura Avezova. Esse – o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi vosita.....                                                              | 139 |
| Oysuluv Musurmonkulova. Adabiy ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish usullari .....                                                | 142 |
| Nazarov Vahobjon. Multimedia va raqamli texnologiyalarning chet tili o'qitish jarayoniga tatbiq etishning zaruriyati .....                                     | 145 |
| Shaxnoza Muxtarova. Ona tilini rus tili fani bilan bog'liqlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                    | 148 |
| Surayyo Muqumova. Ona tilini o'qitishda ta'lim tamoyillararo integratsiya .....                                                                                | 150 |
| Gulruh Bozorova, Maysara Eshniyazova. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish.....                          | 152 |
| S.Yuldasheva, S. Najiyeva. Didaktik jarayonida talabalar ijodkorligini rivojlantirish.....                                                                     | 156 |
| Marxabo Xakimova. Tarbiyada qadriyat va ma'naviyatning o'rni va ahamiyati .....                                                                                | 158 |
| Sh.Nizamova, Shaxnoza Ibrohimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari .....                                    | 159 |
| Nodira Zikirova. The role of innovatite technologies in the development of methodical training of teachers in general secondary educational institutions ..... | 162 |
| Madina Dalieva. Term and its specific semantic characteristics.....                                                                                            | 165 |
| Shaxlo Maxkamova. Approaches and methods of teaching english grammar.....                                                                                      | 168 |
| Фарида Умарова. Методическая разработка на тему «Праздники. Как поздравить с чем-нибудь?» .....                                                                | 171 |

### TILSHUNOSLIK

|                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Shaxnoza Djurayeva. Axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar.....                     | 176 |
| To'lqin Mardiyev. O'zbek badiiy asarlarida vatan konseptining lingvomadaniy tahlil ..... | 177 |
| Baxodir Suyunov. Tashqi tibbiy lakunalar .....                                           | 179 |
| Oydin Nurullayeva. Parallel korpuslarda frazeologik birliklarning ifodalanishi .....     | 183 |
| Sunnat Abdunabiyev. Arab tilshunosligida atamashunoslik.....                             | 185 |
| Mahbuba Qobilova. Izohli lug'atlarda sotsial ma'noli leksemalarning semantikasi .....    | 189 |

### MULOHAZA

|                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Suxrob Saitov. O.Henry ijodi va milliy adabiy jarayoni.....                               | 191 |
| Saxatmurot Xurramov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv mahorati muammolari ..... | 192 |

### KICHIK TADQIQOT

|                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Hulkar Jo'raqulova. Qoraqalpoq va o'zbek tilidagi frazemalarning qiyosiy tahlili ..... | 194 |
| Muxlisa Sobirova. O'zbek ismlarining sotsialingvistik xususiyatlari .....              | 195 |

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азимов Э., Щукин А. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). - Москва: Издательство ИКАР, 2009. 448 с.
2. Зубов А. В. Методика применения информационных технологий в обучении иностранным языкам / А.В. Зубов, И.И. Зубова. - Москва: Академия, 2009. – 140 с.
3. Потапова Р. К. Новые информационные технологии и лингвистика: учеб. пособие; Московский гос. лингвистический ун-т. - Изд. 6-е. - Москва: ЛЕНАНД, 2016 - 364 с.
4. Солдатова Г.У., Рассказова Е.И. Безопасность подростков в интернете: риски, совладание и родительская медиация // Национальный психологический журнал. 2014. №3 (15) С.36-48.
5. Сысоев П. В. Методика обучения иностранному языку с использованием новых информационно-коммуникационных Интернет-технологий: учебно-методическое пособие / П.В. Сысоев, М.Н. Евстигнев. - Москва; Ростов-на-Дону: Глосса-Пресс Феникс, 2010. – 177 с.

Shaxnoza MUXTAROVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

## ONA TILINI RUS TILI FANI BILAN BOG'LIQLIKDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada til ta'limida fanlararo aloqadorlikka e'tibor berish, ona tili ta'limi jarayonida o'zbek tili bilan rus tili materiallarini bog'lab o'rgatib borishning ahamiyati, o'zlashma so'zlarning talaffuzi va imlosini o'rgatish jarayoniga integrativ yondashuv haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, internatsional so'zlar, fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, o'zlashma so'zlar, leksikologiya, omonimlar, atamalar.

**Annotation:** in this article, attention to interdisciplinarity in language education, the importance of teaching Uzbek and Russian language materials in the process of mother tongue education, integrative to the process of teaching the pronunciation and spelling of native words approach is discussed.

**Key words:** integration, international words, phonetics, graphics, spelling, orthography, borrowed words, lexicology, homonyms, terms.

**Абстрактный:** в данной статье обсуждается внимание к междисциплинарности в языковом образовании, важность преподавания узбекских и русских языковых материалов в процессе обучения родному языку, интегративный подход к процессу обучения произношению и написанию родных слов.

**Ключевые слова:** интеграция, интернациональные слова, фонетика, графика, орфография, орфоэпия, заимствованные слова, лексикология, омонимы, термины.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Davrimizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi.

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifasi – o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikrini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, ma'lum fanlar yuzasidan turli bilim va malakalarni hosil qilish, to'la savodxonlikni ta'minlash, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq o'quvchilarni ongli, yuksak saviyali, g'oyaviy, siyosiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda o'qituvchining bilimi yoki undagi to'plangan tajribaning o'zi yetarli emas.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Ona tili ta'limiga integrativ yondashuv uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili o'qituvchisi fanlararo ichki bog'lanishda uzviylikni ta'minlashi lozim. Fan mavzulari o'zaro uzviy bog'lanib, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyili asosida yangi mavzuni oldin o'tilgan mavzular bilan bog'lab olib borishdir. Bu tadbirlar fanlararo bog'lanishning ma'lum bo'lgan uch turi, ya'ni yangi mavzuni o'tishdan oldin, yangi mavzuni o'rganish jarayonida va yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng bog'lash usullaridan foydalanib

amalga oshiriladi.

Ona tili ta'limidagi tashqi bog'lanish esa uning boshqa turdosh va turdosh bo'lmagan sohalar va fanlar bilan bo'lgan o'zaro bog'lanishni bildiradi. Bu borada ona tili fani adabiyot, tarix, rus tili, geografiya, informatika, fizika, matematika, kimyo, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari bilan o'zaro bog'lanadi va mavjud bilimlar umumlashgan holda tasniflanadi.

Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Ona tili ta'limi jarayonida o'zbek tili bilan rus tili materiallarini bog'lab o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, internatsional so'zlar turli tillarda ishlatiladi. Bunday so'zlar barcha millat tillariga rus tili orqali kirib keladi. Umumta'lim maktablarida unli va undosh fonemalar, ularning imlosi, urg'u, ayrim undoshlar orfoepiyasi, alifbo haqida bilim berishda rus tili materiallari bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

Unli harflar (**a, o, i, e, u, o', ye, yo, yu, ya**) talaffuzi o'rgatilgan, **o** fonemasi haqida alohida to'xtash lozim. **O** fonemasi til orqa, lablangan, quyi keng unli bo'lib, so'zning barcha bo'g'inlarida keladi. Ammo o'zbek tilida rus tili orqali o'zlashgan **tom, tok, orden, norma, rol, kontrol, royal** kabi so'zlarda **o** unlisi **o'** tovushiga moyilroq talaffuz etilishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tushuntirgan mazkur ma'lumot o'quvchilarning og'zaki va yozma mashqlar bajarishlari jarayonida mustahkamlanadi. Shuningdek, rus tilidan o'zlashgan **bank, tank, kiosk** kabi so'zlarga o'zbek tilida **a** unlisi qo'shib aytilishi (**banka, tanka, knoska** tarzida) va yozilishi **spravka, stadion, stol** kabi so'zlar og'zaki nutqda **ispravka, istadion, istol, ustol** tarzida **i, u** unllarining orttirib talaffuz etilishi aytilib, ammo bu unllarni qo'shib yozish yozuvda adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmasligi tushuntiriladi.

O'zbek tilidagi **g, k, q, g'** kabi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning orfoepiya va orfografiyasi haqida gapirilganda, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi, asosan, **-ga(bog'-bog'ga)** ekanligi, ammo **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga **-ka, (eshik-eshikka), q** undoshi bilan tugallansa **-qa** shaklida (**qishloq-qishloqqa**) talaffuz qilinadi va yoziladi. Shuningdek, yumshatish belgisi (**ь**) bilan tugallangan ruscha-internatsional so'zlarga qo'shimchalar qo'shilganda, bu belgining tushib qolishi ta'kidlanadi.

"Fonetika va grafika" bo'limini o'tishda rus tili bilan o'zbek tilini bog'lab quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

O'zbek tilidagi rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so'zlar (**parta, pioner, portret, kosmanavt, galstuk**)dan misol keltirish va shunday so'zlarga o'zlari bilganlarini (**газета, журнал, театр, каникул**) qo'shish. Bu usulda fonetikani o'qitish o'quvchilarning qiziqishini orttiradi, fikr yuritishga o'rgatadi.

O'zbek tilining orfoepiya qoidalariga talablariga nisbatan o'quvchilar ruscha so'zlar talaffuzida va imlosida xatolarga yo'l qo'yadilar. Bunday xatolar qo'sh undoshli ruscha-internatsional so'zlarini talaffuz etishda uchraydi: portlovchi va sonor undosh tovushli so'zlar: **bloknot** (biloknot), **blokada** (bilokada), **brigada** (birigada), **gradus** (giradus), **gramm** (giram), **klub** (kulub), **knopka** (kinopka).

Rus tilidan o'zlashgan so'zlardagi tovushlar birligini bo'g'inga ajratishda o'zbek tilining o'ziga xos orfoepik va orfografik qoidalarining mos kelmasligi hamda o'zbek va rus tillaridagi undosh fonemalarning teng emasligi ham ahamiyatga ega. Chunki o'zbek tilidagi undosh tovushlardan rus tilidagi undosh tovushlar ko'proq ekanligidan o'quvchilar talaffuz normalarini buzib, yozuvda xatoga yo'l qo'yadilar.

Tilshunos olimlar tildagi so'zlarning qanday kelib chiqqanligini, ya'ni etimologiyasini ham tekshiradilar. Nutqimizda uchrab turadigan ayrim so'zlar etimologiyasini (grekcha etimon - haqiqat, logos - ta'limot degani) izohli lug'atlar orqali bilishlari mumkin. Masalan, vagon so'zi asli inglizcha "vage" - arava degan so'z bo'lib, rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. «vaze- lin» so'zining "vaze" qismi fransuzcha bo'lib, "loyqa" degan ma'noni ifodalaydi, qolgan qismi esa yunoncha "eleton" so'zidan olinib, "moy" demakdir. Demak, fransuz-yunon so'zlaridan hosil bo'lgan "vazelin" rus tili orqali o'zbek tiliga o'tgan. Shuningdek, fors-tojik tilida "dar" so'zi "eshik" demakdir. Shu so'zga o'zbekcha so'z va qo'shimchalarni qo'shish bilan darcha, darparda, darbadar kabi so'zlar hosil bo'lishi aytilib, yangi mavzu mustahkamlanadi.

"Leksikologiya" bo'limidan "Omonimlar", "Atamalar" mavzusini o'tishda ham rus tilidan foydalanish, qiyoslash juda o'rindir. Masalan, omonimlarning tub mohiyatini yoritishda badiiy adabiyotlardagi tuyuq janrlaridan misollar keltirish mumkin.

Lug'at bilan ishlash. Ta'lim jarayonida o'zbek va rus tili fanlarining o'zaro aloqadorlik muammolarini yoritishda lug'atlardan keng foydalanish zarur. O'quvchilar o'zlari uchun mo'ljallangan «Imlo lug'ati»dan ruscha-internatsional so'zlarni topadilar, «Izohli lug'at»lar orqali so'z ma'nolarini tushunib oladilar. "Ruscha-internatsional o'zlashma so'zlar izohli lug'ati"dan ayrim so'zlarning etimologiyasini aniqlaydilar: avans, agronom, aktiv, bagaj, bint, bloknot va h. k. Misollar: Aktyor, artist - spektakl va kinofilmlarda rol o'ynovchi, ana shu xizmatni kasb qilib olgan shaxsni bildiradi. Kanikul, ta'til so'zlari o'quv yurtlarida mashg'ulotlar to'xtab, dam olish uchun ajratiladigan vaqt. Hozirda ta'til so'zi eskirib, rus tilidan o'zlashgan kanikul so'zi keng ko'lamda ishlatilmoqda. Attestat so'zi o'quv yurtini bitirganlik haqidagi rasmiy hujjat, guvohnoma degan ma'noni bildirib, o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan. Rus tiliga nemis tilidan, nemis tiliga esa lotin tilidan o'tgan.

“Leksika” bo‘limidagi omonim, sinonim, antonim so‘zlarni o‘rgatishda tarjima usulidan foydalanish qulay usuldir. Bu bilan birinchidan, o‘quvchilarning rus tilidan olayotgan ma’lumotlari mustahkamlanadi, ikkinchidan, lug‘at boyliklari oshadi, uchinchi, so‘zlar ma’nosini qiyoslab tushuntirish orqali ko‘p narsa bilib oladilar.

Ona tili darslarida rus tili va chet tili materiallarini qiyoslab borish bilan o‘quvchilar lug‘at ustida ishlash, so‘zlarning etimologiyasini aniqlash, tillarning grammatik tafovutlarini amalda bilib oladilar.

Fan asoslarini o‘qitishda shakllantirilayotgan mahorat va malaka esa ham bilimga, ham fan sistemasiga bo‘ysundiriladi. Bunda ikki maqsad ilmiy va tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida chet tili materiallarini ham qiyoslab borish muhim ahamiyatga ega. Chunki tilga xos fanlarni, jumladan, chet tilini qiyoslab borish o‘quvchilarning lingvistik fikrlashini rivojlantiradi.

Xullas, ona tili ta’limi jarayonida o‘qituvchi yuqoridagilarga e’tibor berishi natijasida o‘quvchilarga o‘zbek tili materiallarining o‘zaro bog‘lanishi, ruscha-internatsional so‘zlarning ma’nosini tushuntirishi, to‘g‘ri yozish, o‘qish va talaffuzga e’tibor berib nutqda qo‘llash, tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T: O‘zbekiston, 2017.
2. Usmonov O., Doniyorov R. O‘zbek tilidagi ruscha-internatsional o‘zlashtirma so‘zlar izohli lug‘ati. – T: “Fan”, 1965.
3. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun. – G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – T: 2020.
4. Yoqubjonova.O., Ona tili darslarida boshqa o‘quv predmetlari materiallaridan foydalanish., – T: “O‘qituvchi”, 1988.
5. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.

**Surayyo MUQUMOVA,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi*

## ONA TILINI O‘QITISHDA TA’LIM TAMOYILLARARO INTEGRATSIYA

**Annotatsiya:** ona tilini o‘qitishda ta’lim uchun asos qilib olingan asosiy qonun-qoidalar negizida ham integratsiya mavjud. Bir tamoyil ikkinchisi uchun zamin bo‘ladi, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tamoyillari, didaktika, bilim, integratsiya, ona tili ta’limi.

**Аннотация:** в обучении родному языку также существует интеграция, основанная на основных принципах образования. Один принцип является основой другого. одно дополняет другое.

**Ключевые слова:** принципы образования, дидактика, знания, интеграция, обучение на родном языке.

**Abstract:** in teaching the native language there is also integration based on the basic principles of education. One principle is the basis of another. one complements the other.

**Key words:** principles of education, didactics, knowledge, integration, education in the native language.

Ta’lim tamoyillari ta’lim uchun asos qilib olingan asosiy qonun-qoidalardir. Har bir tamoyil negizida ham integratsiya mavjud. Bir tamoyil ikkinchisi uchun zamin bo‘ladi, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Ona tili mashg‘ulotlarida tamoyillararo integratsiyani quyidagicha izohlash mumkin:

1. *Ta’limning ilmiylik tamoyili.* Ilmiy bilimlar haqqoniy voqelikni inson ongida aks etishidir. Tevarak atrofni o‘rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning xossalarini va ularning o‘zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilim ilmiy bilimlar hisoblanadi. **Ta’lim jarayonida biz o‘quvchilarga isbotlab bo‘lingan, aniqlangan va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan bilimlarni yetkazishimiz lozim. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi [1:165.]**

Ona tili darslarida matnlar bilan ishlashda dasrlukda tavsiya etilgan matnlarda ilmiy asoslangan materiallar berilgan. Lekin o‘quvchilar savollarga javob berishda mustaqil fikrlarini bayon etishda o‘qituvchi ularning ilmiy asoslangan bo‘lishiga e’tibor qaratishi lozim. Mashqlar bajarishda yoki qo‘shimcha topshiriqlar, misollar tahlili, grammatik o‘yinlarda shartlar topshiriqlar berishda, testlar tuzishda ilmiylik tamoyiliga amal qilish, javoblar ham fan nuqtayi nazaridan ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Tushunish, avvalo, mavzu nomidan boshlanadi. Dars jarayonida